XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 5 - yanvar VI-54-1-11-154-K/23 Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tumani bo`yicha qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash haqida

O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig`ini yanada takomillashtirish to`g`risida”gi PF-6121-Farmonining 4-bandiga muvofiq tuman moliya bo`limi va tuman davlat soliq inspeksiyasining “qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” loyihasi bo`yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, O`zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 9-dekabrdagi qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo`llash bo`yicha 06/04-34/4103-xdfu-sonli xatiga ko`ra, quyidagilar:

- yer solig`ining amaldagi soliq stavkalari 2023-yilda **1,1** baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

- Buvayda tumani uchun qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar bo`yicha yuridik shaxslarga **1 ga** uchun **33,0 mln.**so`m va jismoniy shaxslarga **1 kv.m** uchun **297,0** so`m bazaviy

soliq stavkasi belgilanishi ko`zda tutilganligi;

- kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo`llashda keyingi yil mahalliy budjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo`yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlarini belgilash bo`yicha tuman moliya bo`limi va tuman davlat soliq inspektsiyasining qo`shma taklifi ma’qullansin.

3. Mazkur qaror bilan:

- Buvayda tumani hududida qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun **yuridik shaxslar** bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlari **1-ilovaga** muvofiq;

- Buvayda tumani hududida qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun **jismoniy shaxslar** bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda:

- soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2022-yil uchun hisoblangan soliq summasining **1,3** baravaridan oshmasligi lozimligi;

- tuman Xalq deputatlari Kengashiga viloyat Xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig`i stavkalariga qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko`cha kesimida **0,7** dan **3,0** gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko`rsatib o`tilsin.

4. Buvayda tuman hokimining birinchi o`rinbosari (D.Mirzahalilov), tuman hokimligi moliya bo`limi (A.Ergashev), tuman Davlat soliq inspektsiyasi (T.Arzimatov) 3 kun muddatda qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsiyentlarni mahalla fuqarolar yig`inlariga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Buvayda tuman Davlat soliq inspeksiyasi (T.Arzimatov) yer solig`i bo`yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to`lovchilarga soliq to`lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

6. Buvayda tuman Davlat soliq inspeksiyasi (T.Arzimatov) O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to`liq va to`g`ri hisoblanishini hamda o`z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

- tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko`paytirish bo`yicha

qo`shimcha zaxiralarni aniqlash;

- yer solig`ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

7. Tuman hokimligi matbuot xizmati (A.Soliyeva)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida keng yoritishiga tavsiya berilsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi (H.Akbarov) zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiritilsin.

Туман ҳокими **Odiljonovich I. B.**

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-54-1-11-154-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo`jaligi uchun mo`ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so`mda

T/r	Shahar va tuman nomi	MFYlar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig`i stavkasi 2023-yil uchun (1 ga uchun)
1	Buvayda t	Jiydali MFY	1,10	0
2	Buvayda t	Qo`rg`oncha MFY	1,10	0
3	Buvayda t	Yangiqishloq MFY	1,10	0
4	Buvayda t	Jaloer MFY	1,10	0
5	Buvayda t	Yangiqo`rg`on MFY	1,10	0
6	Buvayda t	Dodxo MFY	1,10	0
7	Buvayda t	Ing`irchoq MFY	1,10	0
8	Buvayda t	Beglar MFY	1,10	0
9	Buvayda t	Maslaxat MFY	1,10	0
10	Buvayda t	Yashnarobod MFY	1,10	0
11	Buvayda t	Qo`ng`irot MFY	1,10	0
12	Buvayda t	Tuman MFY	1,10	0
13	Buvayda t	O`rta Qo`ng`irot MFY	1,10	0
14	Buvayda t	Cho`mbog`ish MFY	1,10	0
15	Buvayda t	Dehqonobod MFY	1,10	0
16	Buvayda t	Tarrachi MFY	1,00	0
17	Buvayda t	Sho`r MFY	1,10	0
18	Buvayda t	Oyim qishloq MFY	1,10	0
19	Buvayda t	Qoratepa MFY	1,10	0
20	Buvayda t	Bachqir MFY	1,00	0
21	Buvayda t	Begobod MFY	1,00	0
22	Buvayda t	Pishag`ar MFY	1,00	0
23	Buvayda t	Poshshopirm MFY	1,00	0

24	Buvayda t	Xasanqo`rg`oncha MFY	1,00	0
25	Buvayda t	Oltinqo`rg`on MFY	1,00	0
26	Buvayda t	Qoraqum MFY	1,00	0
27	Buvayda t	Oqqo`rg`on MFY	1,00	0
28	Buvayda t	Yuqoti mang`it MFY	1,00	0
29	Buvayda t	Jov MFY	1,00	0
30	Buvayda t	Cho`taka MFY	1,00	0
31	Buvayda t	Nayman MFY	1,00	0
32	Buvayda t	Tepalik MFY	1,00	0
33	Buvayda t	Buvayda MFY	1,10	0
34	Buvayda t	Elobod MFY	1,10	0
35	Buvayda t	Buvimozor MFY	1,10	0
36	Buvayda t	Tog`liq MFY	1,10	0
37	Buvayda t	Ozod MFY	1,10	0
38	Buvayda t	Qilovtepa MFY	1,10	0
39	Buvayda t	Jilva MFY	0,90	0
40	Buvayda t	Xo`jaobod MFY	0,90	0
41	Buvayda t	Hakimto`ra MFY	0,90	0
42	Buvayda t	Urganji MFY	0,90	0
43	Buvayda t	Qum MFY	0,90	0
44	Buvayda t	Beshterak MFY	0,90	0
45	Buvayda t	Shodlik MFY	0,90	0
46	Buvayda t	Arab MFY	0,90	0
47	Buvayda t	Turk MFY	0,90	0
48	Buvayda t	Sho`r qishloq MFY	0,90	0
49	Buvayda t	Yangihayot MFY	0,90	0
50	Buvayda t	Qo`rg`onobod MFY	0,90	0
51	Buvayda t	Xonobod MFY	0,90	0
52	Buvayda t	Ponsod MFY	0,90	0
53	Buvayda t	Oqtepa MFY	0,90	0
54	Buvayda t	Yangiqadam MFY	0,90	0
55	Buvayda t	Uzumzor MFY	0,90	0

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-54-1-11-154-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo`yicha (dehqon xo`jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so`mda

T/r	Shahar va tuman nomi	MFYlar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig`i stavkasi 2023-yil uchun (1 kv uchun)
1	Buvayda t	Jiydali MFY	1,10	0,0
2	Buvayda t	Qo`rg`oncha MFY	1,10	0,0
3	Buvayda t	Yangiqishloq MFY	1,10	0,0
4	Buvayda t	Jaloer MFY	1,10	0,0
5	Buvayda t	Yangiqo`rg`on MFY	1,10	0,0
6	Buvayda t	Dodxo MFY	1,10	0,0
7	Buvayda t	Ing`irchoq MFY	1,10	0,0
8	Buvayda t	Beglar MFY	1,10	0,0
9	Buvayda t	Maslaxat MFY	1,10	0,0
10	Buvayda t	Yashnarobod MFY	1,10	0,0
11	Buvayda t	Qo`ng`irot MFY	1,10	0,0
12	Buvayda t	Tuman MFY	1,10	0,0
13	Buvayda t	O`rta Qo`ng`irot MFY	1,10	0,0
14	Buvayda t	Cho`mbog`ish MFY	1,10	0,0
15	Buvayda t	Dehqonobod MFY	1,10	0,0
16	Buvayda t	Tarrachi MFY	1,00	0,0
17	Buvayda t	Sho`r MFY	1,10	0,0
18	Buvayda t	Oyim qishloq MFY	1,10	0,0
19	Buvayda t	Qoratepa MFY	1,10	0,0
20	Buvayda t	Bachqir MFY	1,00	0,0
21	Buvayda t	Begobod MFY	1,00	0,0
22	Buvayda t	Pishag`ar MFY	1,00	0,0
23	Buvayda t	Poshshopirm MFY	1,00	0,0

24	Buvayda t	Xasanqo`rg`oncha MFY	1,00	0,0
25	Buvayda t	Oltinqo`rg`on MFY	1,00	0,0
26	Buvayda t	Qoraqum MFY	1,00	0,0
27	Buvayda t	Oqqo`rg`on MFY	1,00	0,0
28	Buvayda t	Yuqoti mang`it MFY	1,00	0,0
29	Buvayda t	Jov MFY	1,00	0,0
30	Buvayda t	Cho`taka MFY	1,00	0,0
31	Buvayda t	Nayman MFY	1,00	0,0
32	Buvayda t	Tepalik MFY	1,00	0,0
33	Buvayda t	Buvayda MFY	1,10	0,0
34	Buvayda t	Elobod MFY	1,10	0,0
35	Buvayda t	Buvimozor MFY	1,10	0,0
36	Buvayda t	Tog`liq MFY	1,10	0,0
37	Buvayda t	Ozod MFY	1,10	0,0
38	Buvayda t	Qilovtepa MFY	1,10	0,0
39	Buvayda t	Jilva MFY	0,90	0,0
40	Buvayda t	Xo`jaobod MFY	0,90	0,0
41	Buvayda t	Hakimto`ra MFY	0,90	0,0
42	Buvayda t	Urganji MFY	0,90	0,0
43	Buvayda t	Qum MFY	0,90	0,0
44	Buvayda t	Beshterak MFY	0,90	0,0
45	Buvayda t	Shodlik MFY	0,90	0,0
46	Buvayda t	Arab MFY	0,90	0,0
47	Buvayda t	Turk MFY	0,90	0,0
48	Buvayda t	Sho`r qishloq MFY	0,90	0,0
49	Buvayda t	Yangihayot MFY	0,90	0,0
50	Buvayda t	Qo`rg`onobod MFY	0,90	0,0
51	Buvayda t	Xonobod MFY	0,90	0,0
52	Buvayda t	Ponsod MFY	0,90	0,0
53	Buvayda t	Oqtepa MFY	0,90	0,0
54	Buvayda t	Yangiqadam MFY	0,90	0,0
55	Buvayda t	Uzumzor MFY	0,90	0,0